

## “OILA KONSEPTINING LINGVOMADANIY LINGVOKOGNITIV TADQIQI”

*Maxammadxonova Maftuna Ne'matillo qizi*  
*ADU lingvistika yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bu-konseptdir. Bu termin kongitiv tilshunoslik va lingvokulturalogiyaning muhim kategoriyalaidan biridir. Ushbu maqolada oila konsepti va uning lingvomadaniy tadqiqi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, konsept, lingvokulturalogiya, mantiqiy kategoriya, assotsiatsiyativ birliklar, oila konsepti.

**Keywords:** cognitive linguistics, concept, linguoculturalology, logical category, associative, family concept.

Tushuncha tilshunoslikda nisbatan yangi atama bo'lganligi sababli, u haligacha umumiy qabul qilingan ta'rifga ega emas. Biroq bu tushunchani umumiy o'rganishga ham, turli tushunchalarni tadqiq qilishga ham yetarlicha ilmiy ishlar, ilmiy maqolalar bag'ishlangan. Har qanday aniq konseptsiyani tahlil qilishdan oldin, konseptsiya tushunchasining mazmunini ko'rib chiqish juda muhim sanaladi. Tushuncha atamasi paydo bo'lgan dastlabki paytdayoq “ma'no” atamasi bilan tenglashtirildi. Biroq rus tilshunosi Y.S. Stepanovning fikricha, ma'no tushunchaga nisbatan soddaroq tuzilishga egadir<sup>1</sup>. Ma'no tarkibida mazmun tarkibiy qismlari ustunlik qiladi, tushuncha tarkibida ifodalangan barcha komponentlar qatnashmaydi. Misol uchun “ona” so'zini olaylik, unda insonni dunyoga keltiradigan, voyaga yetkazadigan ayol shaxsi tushuniladi. Bu uning mazmuniy ma'nosini ifoda etsa tushunchada insonlarning eng yaqin, mehribon, jafokash va qadrli insoni, vatan, do'st, jannat kaliti kabi ko'plab qo'shimcha ma'nolar o'z ifodasini topadi.

Bundan tashqari ma'no muhim va zarur belgilarni to'playdi, tushuncha esa hatto ahamiyatsiz belgilarni ham to'plashi mumkin. Biroq, V. A. Maslova tushuncha va ma'no o'rtasida yengib bo'lmas to'siqlar yo'qligini ta'kidlaydi. Uning fikricha ma'nolar tushunchaga aylanishi mumkin<sup>2</sup>.

Garchi konsept atamasi kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun ham muhim kategoriya hisoblansada, uning ushbu fanlardagi izohi farqlidir. Ushbu termin

<sup>1</sup>Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти, 2006 – 92 б.

<sup>2</sup>Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. — 256 с.

tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi *tushuncha* terminiga nisbatan ham kengayganini ko'rish mumkin.

Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning barchasi ushbu tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishadi. Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir biriga juda yaqindir, ular konseptni "mantiqiy kategorie" sifatida talqin etishadi. Ya'ni Askoldovning fikricha "konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi nshu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi". Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o'z ichig olishini ko'rsatadi va konsept tuzilishida o'zgacha nuetai nazar borligini ta'kidlaydi. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotishini ham o'z fikrlarida bayon etgan. Qolaversa, har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'noiy tuzilishidan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalari tegishli, shaxsiy individual komponentlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi.

Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarni ifodalaydi. Masalan, *oila* konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

1) Muqaddas dargoh: bunyod etilishi baxtga, barbod bo'lishi baxtsizlikka tenglashtiriladigan ilohiy rishta ;

2) Har qanday vaziyatda ham sizni qo'llovchi kishlar jamoasi: yosh-u qari turli vaziyatda hamisha oilasiga tayanadi.

3) Ola hurjin: qancha solsang ham kami to'lmaydigan ola hurjingga qiyoslanadi;

4) Mas'uliyat: oilaning har bir a'zosi o'zining ma'lum qat'iy vazifalariga ega maskan.

5) Himoya qobig'i: o'zbeklarda oilali erkakka ham ayolga ham, ota onasi bor farzandlarga ham munosabat hamisha ijobiy. Bizning o'zbek xalqida g'arb mamlakatlaridan farqli o'laroq oila deganda kuyov, kelin, qaynona, qaynota va farzandlardan iborat kishilar jamoasi tushuniladi.

6) Er-u xotin qo'sh xo'kiz: har qanday hayot sinovlarini hamisha birga yengib o'tadigan juftlik.

Har bir xalqning mavjudligi zamirida erkak va ayol konsepti turadi. Har qanday xalq o'tmishi va bugunida ota-ona mehri ko'rinishlarini ko'rish mumkin. Bu muhabbat esa ko'pincha vatan muhabbatiga o'tadi. Masalan ona vatan iborasi tilimizda hamisha

qo'llanadi va bu vatanning onaga qiyos etilishini anglatadi. Ota ham ona ham farzandini o'zlari mansub bo'lgan madaniyat asosiy qadriyatlar bilan tanishtiradilar. Lekin ko'pincha bola onasidan ilk so'z, qo'shiq va ertaklarni eshitadi ilk hayot saboqlarini oladi. Shuning uchun ham ona leksemasining ishlanish chastotasi ota leksemasining ishlanish chastotasidan yuqori. O'zbek oilalarida oila konsepti tarkibiy qismini tashkil etuvchi ona leksemasining o'zi ham alohida konsept darajasiga ko'tarila oladi.

Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda oila konsepti barcha xalqlar uchun konsept darajasiga ko'tarilgan bo'lsada o'z ichki assotsiativ belgilariga ko'ra bir biridan farq qiladi. Bu farqlanishni xalqlarning madaniyati va dinidagi turfalik bilan izohlash mumkin.

Lingvomadaniyatda madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va h.k. tushuniladi<sup>3</sup>. Madaniyat konseptlarini A.Y. Gurevich ikki guruhga: "fazoviy", falsafiy kategoriyalar, ya'ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, sabab, o'zgarish, harakat) hamda ijtimoiy kategoriyalar, ya'ni madaniyat kategoriyalari (erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulk)ga ajratadi<sup>4</sup>. V.A.Maslova bunga yana bir guruhni – milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o'ziga xos konseptlarning ko'pligi aniqlangan. Misol tariqasida oila konseptining leksik birligi bo'lgan ota-ona leksemalarni olaylik. Ota-ona ruslar uchun hozirda oiladagi va farzandlar hayotidagi eng muhim shaxs maqomini yo'qotib bormoqda. O'zbeklar uchun ota-onaning oiladagi o'rni qadim qadriyatlar etaloni sifatida haligacha mavqeyini yo'qotmay kelmoqda. Bizda farzand tug'ilgandan boshlab to vafot etgunicha ota-ona uchun "bola" bo'lib, uning qarorlariga va istaklariga bo'yin egishni milliy va diniy qadriyat, ota-onaga hurmatni esa insoniylikning eng muhim belgisi sifatida talqin etib kelishgan.

Xulosa qilib aytganda lingvomadaniy konsept har bir xalqning dini, qadriyatlari turfaligi bilan turlichalik kasb etadigan birlik sanaladi.

<sup>3</sup> Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. — 256 с.

<sup>4</sup> Хаустова В. Е., Зинченко В. А. Развитие когнитологии как

REFERENCES

1. Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. — СПб.: Фил Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. — 256 с.
2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти, 2006 – 92 б.
3. Хаустова В. Е., Зинченко В. А. Развитие когнитологии как научно-направления и использование его при решении социально-экономических задач//<https://www.researchgate.net/publication/338607312>, 2009.
4. Т.Г.Скребцова. Американская школа когнитивной лингвистики. – Санкт-Петербург, 2000.-204 с.
5. Peter Robinson and Nick C. Ellis, Handbook of cognitive linguistics and second language acquisition: Handbook. – Taylor & Francis e-Library, 2008. – 566 p.
6. N.Z.Shayxislamov. Kognitiv tilshunoslik to‘g‘risida tushuncha va uning universal tabiati//Scientific progress, 2021.
7. Langacker, R.W. Foundations of Cognitive Grammar , Standford : Standford University Press, 1987. – 540 p.
8. Shozamonov, S. I., Nazarova, S. A., & Djuraev, B. B. (2021). Problems of Development of the Uzbek Language in Current Society. Open Journal of Modern Linguistics, 11(4), 613-620.
9. Артикова, З. З. (2021). LEXICO FEATURES OF THE PIECE COUNTING WORD 把 ВА. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-8), 113-118.